

Hamkorlikning ilk samarasi

2020-yilning 21-noyabr kuni soat 11:30 da Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti "Turon bank" ATB O'quv xonasida "Turon bank" aktsionerlik tijorat banki o'rtasida kelishilgan memorandum asosida "Suv xo'jaligini tashkil etish va boshqarish" fakulteti professor-o'qituvchilari hamda iqtidorli talabalari uchun o'quv seminar darslari boshlandi. Seminarda ATB "Turon bank" Chakana xizmatlar departamenti direktori o'rinnbosari Vahobov Eldor Baxtiyarovich bank sohasida, jumladan, ATB "Turonbank"da amalga oshirilayotgan islohotlar, sohaga kiritilayotgan yangiliklar, bank xodimiga qo'yilayotgan talablar to'g'risida ma'ruza qildi. Bank uchun zamonaviy bilimlar bilan qurollangan, xorijiy tillarni mukammal o'zlashtirgan, axborot texnologiyalarni yaxshi biladigan kreativ fikrlaydigan, tashabbuskor kadrlar kerakligi ta'kidlandi. Seminar qizg'in bahs va savol javoblar asosida o'tdi.



TIQXMMI matbuot xizmati